



## 2020- yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**118,9** mlrd. so‘m

Yirik qurilish

tashkilotlari ulushi **1,6** %

Kichik korxonalar va

mikrofirmalar ulushi

**86,3** %

Norasmiy sektor ulushi

**12,1** %

Joriy yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatida jami **118,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **107,9** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **1,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **250,0** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **102,6** mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining **86,3** % ni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **106,3** % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **14,4** mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **111,6** % ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - 1,9 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati - 250,0 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi - 102,6 mlrd. so‘m


o‘shish sur‘ati - 106,3 %

### Norasmiy sektor

hajmi - 14,4 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati - 111,6 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 74,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % ga kamaydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
*(jamiga nisbatan, % da)*



2020- yil  
yanvar

■ Bino va inshootlarni qurish      ■ Fuqarolik obyektlarini qurish

■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




2019- yil  
yanvar

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi**  
(mlrd. so‘m)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>118,9</b>	<b>1,9</b>	<b>102,6</b>	<b>14,4</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	43,2	1,8	36,9	4,5
Shirin	5,4	0,0	5,3	0,1
Yangiyer	9,7	0,0	8,7	1,0
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	8,9	0,0	7,9	1,0
Guliston	5,3	0,0	4,7	0,6
Mirzaobod	9,4	0,0	8,4	1,0
Oqoltin	7,9	0,0	7,2	0,7
Sardoba	2,5	0,0	1,6	0,9
Sayxunobod	4,1	0,0	3,5	0,6
Sirdaryo	14,8	0,0	11,2	3,6
Xovos	7,7	0,1	7,2	0,4

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 110,6 % , Yangiyer shahrida 109,3 % , Mirzaobod tumanida 104,2 % va Boyovut tumanida 105,0 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan, % da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 86,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 1,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 250,0 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 12,1 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil qildi.




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan, % da)

### 2019- yil yanvar



### 2020- yil yanvar



 Davlat mulkchilik shakli


 Nodavlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 5,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,5 % ni tashkil qildi yani 2019-yil yanvariga nisbatan 0,5 % punktga koʻpaydi.



Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 113,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 95,5 % ni (2019-yil yanvariga nisbatan 0,5 % punktga kamayish) tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari,**  
(jamiga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 36,3 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,5 %, Yangiyer shahriga 8,2 %, Mirzaobod tumanida 7,9 % ga va Boyovut tumaniga 7,5 % dan to‘g‘ri keldi.



**Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi**  
**bo‘limi.**

**Aloqa telefoni:** (67) 225-02-37  
(71) 230-86-27